

AZIZ NESIN HIKOYALARIDA IJTIMOYIY TANQID VA RAMZIY OBRAZLAR TALQINI

Ovlayeva Barno

Guliston davlat universiteti

Filologiya fakulteti, o‘zbek tili yo‘nalishi III bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XX asr turk adabiyotining yirik vakili — Aziz Nesin hikoyalarida ijtimoiy tanqid va ramziy obrazlar talqini tahlil qilinadi. Xususan, “Masxaraboz” va “Hushtak afandim” hikoyalari misolida yozuvchining satirik uslubi, tragikomik obraz yaratish mahorati hamda jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik muammolarni kulgi vositasida ochib berish usuli yoritiladi. Tadqiqot natijasida har ikki hikoyada ramz va satira vositasida jamiyatdagi ichki ziddiyatlar ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *satira, ramziy obraz, tragikomik holat, ijtimoiy tanqid, ichki va tashqi ziddiyat, badiiy talqin.*

Kirish

XX asr turk adabiyotida satira janri alohida o‘rin tutadi. Bu jarayonda Aziz Nesin ijodi o‘zining keskin ijtimoiy yo‘nalishi bilan yanada turk adabiyotini boyitdi. Yozuvchi asarlarida jamiyatdagi byurokratiya, ishsizlik, mansabparastlik va ruhiy iztirob kabi masalalarni kulgili vaziyatlar va obrazlar orqali ochib beradi.

Adabiyotshunos Dilmurod Quronov obraz tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Badiiy obraz – voqelikning ijodkor tafakkurida qayta yaratilgan estetik shaklidir. San’atkor badiiy obraz vositasida dunyoni angelaydi, o‘zi anglagan mohiyatni va o‘zining anglanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi.” Mazkur nazariy qarashdan kelib chiqib, Aziz Nesin hikoyalaridagi yozuvchi maqsadlarini tashuvchi obrazlar individual shaxs emas, balki umumlashtirilgan ijtimoiy hayotdagi xalqning bir tipi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mavzuning dolzarbligi

“Masxaraboz” hikoyasida tragikomik obraz talqini - “Masxaraboz” hikoyasi syujeti sodda ko‘rinsa- da, mazmunan chuqur psixologik ma’noga ega. Asarda ruhiy iztirobga duchor bo‘lgan bemor shifokorga murojaat qiladi. qahramon tilidan aytilgan ushbu gaplar uning qanday holatda ekanligini bizga ko‘rsatib beradi: “Hayotdan zavq ololmayapman. Iztirolarimni unutilmay qiynalyapman”. U hayotdan xushnud bo‘lib kulolmayotganidan shikoyat qilib keladi. Shifokor esa unga afisha ko‘rsatarkan, masxaraboz tomoshasini ko‘rishni tavsiya etib: “U har kuni kechki payt tomosha ko‘rsatib hammani xursand qiladi, siz ham tomoshaga boring, barcha dardingizga davo topasiz”... Hikoya yakunida bemor huddi o‘sha masxaraboz o‘zi ekanini aytadi. Mazkur badiiy yechim tragikomik holatni yuzaga keltiradi. Masxaraboz obrazi orqali tashqi quvnoqlik va ichki dard, iztirob o‘rtasidagi bir-biriga o‘xshamaydigan tuyg‘ularni uyg‘unlashtiradi. Bu obraz orqali yozuvchi

jamiyatimizdagi, oramizdagi bazi insonlarning tashqi ko‘rinishi baxtiyor ko‘ringani bilan, ichki dunyosining qanchalik azobda ekani, ichki horg‘inligi va ruhiyatidagi yashirin og‘riqlarni ko‘rsatadi. Izzat Sulton satira haqida shunday yozadi: “Satira – jamiyatdagi illatlarni kulgi orqali fosh etuvchi badiiy vositadir.” “ Satira ob'ektda idealga mutlaqo zid , jamiyatning joriy holatini nuqtai nazaridan to‘la inkor qiluvchi ziddiyatlarni aks ettiradi”. Darhaqiqat, “Masxaraboz” hikoyasida kulgi ortiga yashiringan chuqur ijtimoiy va ruhiy fojiaviy holat yashiringan. Yozuvchi o‘quvchini tashqi ko‘rinish ortidagi asl haqiqat bilan tanishtirib anglashga chorlaydi. Bu bilan atrofimizdagi har bir kulib turgan inson har doim ham baxtli emasligini, uning ham o‘ziga yarasha dard-u alamlari, azoblari bor ekanligini tushuntiradi.

“Hushtak afandim” hikoyasida ramz va ijtimoiy qo‘rquv. Aziz Nesinning yana bir “Hushtak afandim” nomli hikoyasi 1960-yillar Turkiya jamiyatidagi ijtimoiy beqarorlik sharoitida yaratilgan. Bu davr Turkiya Respublikasida siyosiy ziddiyatlar va harbiy aralashuvlar kuchaygan davr edi.

Hikoyada ishsizlik muammosi markaziy masalalardan biri sifatida ko‘tarilsa , unga qo‘shimcha ravishda jamiyatda mansabdor shaxslardan qo‘rqish va ularga bo‘lgan ortiqcha hurmat gavdalantiriladi. Ishsizlik masalasini bosh qahramon tilidan aytilgan: “Besh oydan beri ishsizman. Erkaklarga ish yo‘q.”- so‘zi orqali anglaymiz. Mazkur jumla orqali iqtisodiy tanglik va ijtimoiy beqarorlik aks ettirilgan. Bu hikoyadagi eng muhim ramz — hushtakdir. U asarda oddiy tovush yoki buyum emas, balki hokimiyat va buyruq timsoliga aylantirilgan. Bunga ham asar qahramoni tilidan aytilgan: “Aslida-ku “huv Musa!” deb chaqirsam ham bo‘lardi-ya, lekin hushtakka hurmat zo‘r ekanmi menda...” - degan so‘zlaridan ham ko‘ramiz. Huddi shu hushtak chalinganidagi qahramon tuygan qo‘rquv insonni beixtiyor hayratga soladi. Bu parcha jamiyatdagi ko‘r-ko‘rona itoatkorlik va qo‘rquv psixologiyasini ochib beradi. Ramziy ifoda orqali yozuvchi hukumat va oddiy xalq o‘rtasidagi masofani ko‘rsatadi.

Natijalar va muhokama

Tahlil natijasida quyidagi jihatlar aniqlandi: Har ikki hikoyada ramziy obraz markaziy o‘rin tutadi; “Masxaraboz”da ichki va tashqi olam ziddiyati tragikomik shaklda ifodalangan bo‘lsa; “Hushtak afandim” hikoyasida ijtimoiy tengsizlik, qo‘rquv va hokimiyat ramziy detal orqali ochilgan. Yozuvchi satira vositasida jamiyatdagi muammolarni ochiq bayon etmasdan, badiiy ishora orqali yetkazadi.

Xulosa

Aziz Nesin hikoyalari satira janrining yorqin namunasi sifatida jamiyatdagi ijtimoiy va psixologik muammolarni yoritadi. “Masxaraboz” hikoyasida insonning ichki fojiaviy ahvolini, tashqi kulgi ortiga yashirgan bo‘lsa, “Hushtak afandim”da oddiy aholiga e’tiborsizlik va hokimiyatga nisbatan shakllangan qo‘rquv psixologiyasi tanqid qilinadi. Shu jihatdan mazkur hikoyalar nafaqat badiiy, balki ijtimoiy-falsafiy ahamiyat kasb etadi, hamda XX asr turk satirik adabiyotining muhim namunalari sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aziz Nesin. “Tanlangan asarlar”
2. Quronov D. “Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari” Toshkent. “Inavatsion ziyo” 2020. 59-s. Sulton I. “Adabiyot nazariyasi” Toshkent.
3. D.quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva “Adabiyotshunoslik lug‘ati” Toshkent-”Akademnashr” 2010.